

**NAMANGAN OBLASTI ARXIVLARINING MODDIY-TEXNIK
TA'MINOTIDAGI MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMLARI*****Xolboyev Mirzabek Karimjon o'g'li****Namangan davlat universiteti**Ijtimoiy fanlar fakulteti o'qituvchisi****Tel:936717176 e-mail: mirzabek7176@gmail.com***

Annotatsiya: Ushbu maqolada Namangan oblastida arxivlar tashkil topishi, arxivlarga bo'lgan e'tibor, moddiy-texnik ta'minot bo'yicha amalga oshirilgan ishlar haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: arxiv, Namangan okrugi arxiv byurosi, moddiy-texnik baza, Namangan oblasti davlat arxivi, tuman arxivlari, fond, arxiv boshqarmasi, SSSR Markaziy arxiv Boshqarmasi.

**PROBLEMS IN THE MATERIAL AND TECHNICAL SUPPORT OF
THE ARCHIVES OF NAMANGAN REGION AND THEIR SOLUTIONS*****Kholboev Mirzabek Karimjon ugli****Namangan State University**Teacher of the Faculty of Social Sciences****Tel:936717176 e-mail: mirzabek7176@gmail.com***

Abstract: This article provides information about the establishment of archives in the Namangan region, the attention paid to archives, and the work carried out on material and technical support.

Key words: archive, Namangan District Archives Bureau, material and technical base, Namangan Regional State Archives, district archives, fund, archive department, USSR Central Archives Department.

**ПРОБЛЕМЫ МАТЕРИАЛЬНО-ТЕХНИЧЕСКОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ
АРХИВОВ РЕГИОНА НАМАНГАН И ИХ РЕШЕНИЯ*****Холбоев Мирзабек Каримжон угли****Наманганский государственный университет**Преподаватель факультета социальных наук****Tel:936717176 e-mail: mirzabek7176@gmail.com***

Аннотации: В данной статье представлена информация о создании архивов в Наманганской области, об уровне внимания, уделяемого архивам, и о работе по материально-техническому обеспечению.

Ключевые слова: архив, Наманганское районное архивное управление, материально-техническая база, Наманганский областной государственный архив, районный архив, фонд, архивный отдел, Центральное архивное управление СССР

Turkistonda arxiv ishining tashkil etilishi bilan sohada yetarlicha muammolar ham paydo bo'ldi va bunday muamolarni bartaraf etish uchun Markaziy arxiv ishi boshqarmasi bir nechta qarorlar qabul qilishiga to'g'ri keldi. Masalan, arxivlarda yuritilayotgan ishlarni tahlil etish yuzasidan oylik hisobot tayyorlash 1922 yildayoq boshlangan. 1922 yil 19 dekabrda 76-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan oylik hisobot shakli barchaga arxivlarga yuborilgan bo'lib, ushbu hisobot har oyning 10-sanasidan kechikmagan holda taqdim etish shart edi. Buni bajarmaganlik uchun javobgarlik bo'lim mudirlari va oblastlardagi vakillarga yuklatilgan. Ma'lumki, hududlardagi harbiy qismlarning ayrim arxivchilari o'z hisobotlarini to'g'ridan-to'g'ri Markaziy arxiv ishi boshqarmasining harbiy bo'limiga yuborishi shart edi[2]. Buning sababi, Turkiston o'lkasida olib borilayotgan harbiy-siyosiy rejimning ayovsiz olib borilganligidir. Natijada, bunday turdagi hujjatlarning barchasi asta-sekinlik bilan yurtimizdan olib chiqib ketilgan.

Arxivlarda yong'inni oldini olish borasida ham barcha hududiy arxiv muassasalari va idoraviy arxivlarga xat yuborilgan. 1924 yil 1 maydagi buyrug'ida hujjatlarni saqlash joylari va arxiv materiallari saqlanadigan yo'laklarda chekmaslik to'g'risidagi buyruq hamda plakatlar mavjudligiga qaramay, chekish holatlari davom etayotgan bo'lgan. Barcha bo'lim rahbarlari, shuningdek, xodimlarga saqlov omborlarida ushbu nomaqbul hodisaga chek qo'yish choralari ko'rish, aks holda, chekuvchilarni ishdan bo'shatish hamda ularning o'rnini chekmaydiganlar bilan almashtirishgacha bo'lgan keskin choralar ko'rish belgilangan. Xo'jalik mudiri barcha bo'limlarda "Chekish qat'iyan man etiladi" mazmundagi plakatlarni yangilash va bunday eslatmalar mavjud bo'lmagan joylarda yangilarini olib qo'yish shartligi qayd etilgan[2]. Muhimi, shu orqali hujjatlarni har qanday xavfdan asrash bo'lib, bunda barchani sergaklikka chaqirilar edi.

O'zSSR MIQ ning 1935 yil 27 iyundagi Prezidiumi 10-sonli bayonnomasi 1 modda 5 bandidagi ko'chirmada SSSRda arxiv ishlarini tartibga solish choralari haqida ushbu bandlar ahamiyatga ega bo'lgan "SSSR arxiv ishi boshqarmasi bilan kelishmasdan bir joydan boshqa joyga arxivni ko'chirish taqiqlanib, arxivlar uchun alohida joy ajratilishi" qonuniy tarzda belgilib qo'yildi[3]. Shu o'rinda, ushbu Qarordan ikki xil xulosa qilish mumkin: birinchidan, arxiv hujjatlarining yo'q bo'lib

ketishini oldini olish bo'lsa, ikkinchidan esa, hujjatlar oqimini doimiy kuzatish hamda boshqarish imkoniyati paydo bo'lgan. Jumladan, Namangan shahar arxiv bo'limi mudiri Hamid Vahobov shahar soveti raisi Abduljalilovga arxivning mavjud holati haqida quyidagi mazmunda yozma xat yuborgan. Unga ko'ra, bizda shahar arxivi bo'yicha qabul qilingan arxiv fondi 80 ga yaqin bo'ldi, ish reja bo'yicha Namanganda bo'lgan 200 ta tashkilot arxivining qabul qilishi kerak edi. Biroq, joy etishmasligi sababli qabul qilishni to'xtatdik. Bizdagi hozirgi joy davlat arxivini saqlash uchun noqulay, o't ketish, changlanish, zahligidan hujjatlar chirib ketish xavfi ostida turishi arxivlar uchun to'g'ri kelmaydi. Shuning uchun ham arxiv hujjatlarini qabul qilish imkonsiz. Qabul qilingan davlat arxiv fondiga kiritilganlarining hammasi 80 ga yaqin fondi bo'lsa-da, ushbu fondlarning ichida siyosiy, maxfiy, adabiy, tarixiy va yirik miqdordagi pul hujjatlaridan iborat. Bularni qoida bo'yicha eng maxfiy, mustahkam joyda saqlash kerak. Biroq, arxiv binosi bir qancha xo'jaliklarni ichida, buni muhofaza qilib turish uchun na qorovul va na yong'inga qarshi kurash anjomi berilmagan. Idoraning ichidagi pol, oynak, stol-stul kabi jihozlar farrosh yo'qligi tufayli 5 oydan buyon supurilmay, yuvilmaydi. Ushbu holat arxiv xizmatchilarining sog'lig'i uchun to'g'ridan-to'g'ri zarardir. Shahar tashkilotlari bo'yicha tekshirishlar bo'lsa-da, bunday ishlar 1939 yilda o'tkazilmadi. Chunki, shahar tashkilot, artel, zavod, kolxoz va mahallalar bo'yicha arxivda bir qancha ishlar bajarilishi shart edi. Biroq, shahar arxivga 1 nafar mudirni o'zi bu ishlarga ulgurmagan. Ish hajmining nihoyatda ko'pligidan bir qanchasi bajarilmay qolib ketgan. Idora va arxiv xonalari 1937 yildan buyon ta'mirlanmagan[4].

Namangan shahar arxiv bo'limida moddiy ta'minot yaxshi emasligi, hujjatlarni saqlash uchun sharoitlar talabga javob bermagani rahbarlar tomonidan yuqori tashkilotlarga talabnoma orqali murojaat qilinganligi haqida muhim ma'lumotlar mavjud. Shunday talabnoma 1939 yil 8 fevralda shahar sovetiga Namangan shahar arxiv mudiridan quyidagi mazmunda yuborilgan. Unga ko'ra: "Shu bilan sizlardan talab qilar edimki, Namangan shahar arxiv bo'limining arxiv turar ombori arxiv uchun mos kelmaydi. Masalan, yoritish uchun elektr yoki deraza yo'q, arxivlar hujjatlari namiqib, chirib ketish xavfi ostida turadi, ventilyator yo'q. Arxivning muhofaza qilish uchun maxsus xodim (o't o'chiruvchi) turishi va unda 1 dona qurol (miltiq) bo'lishi shart, unda esa yo'q. Arxivning o't ketish xavfidan saqlash uchun o't o'chiruvchi asboblari bo'lishi albatta, shart bo'lsa-da, bunday anjomlardan hech biri mavjud bo'lmagan.

Eshiklarning hammasi temir panjaradan bo'lishi shart, lekin eng muhim joylarga panjara kerak (misol: ombor eshigi va idora eshigiga). Bizda tunuka pechka yoqish mumkin emas. Arxiv uchun ikki joyga devoriy pechka qilish kerak va hokazo. Shunga o'xshagan yuqoridagi qator kamchiliklarni yo'q qilib, talab etilgan narsalarni olib berishingizni so'raymiz"[4] deb murojaat yo'llangan. Biroq, bu davrdagi moliyaviy

masalalar birdan xal etilmagan, ayniqsa ijtimoy sohada, bo‘lib ham istilo etilgan hududda. Aksincha, qimmatli deb bilingan hujjatlar markazga tashib ketiladi, shu sababli qolganlari e‘tibordan chetda qoldirildi.

1939 yil 28 oktyabrda esa Namangan shahar arxiv bo‘limi mudiri A Nurmatov Namangan shahar NKVD boshlig‘iga quyidagi mazmunda yozma xat yuborgan edi: Bizdagi siyosiy, iqtisodiy, ilmiy va tarixiy ahamiyatga ega bo‘lgan arxiv materiallari qonunga xilof darajada sementli uyda saqlanib kelinmoqda. Arxiv idorasi 1937 yildan buyon hech qanday remont qilingan emas. Bu uy hozir yiqilish xavfi ostida turadi. Arxiv xonalari vintilizatsiyali, tabiiy yorug‘ joy bo‘lishi, isitilib turishi shart. Biroq, bunday sharoitlar yaratilmagan, aloqa ishi uchun telefon, yorug‘lik uchun elektr yo‘q. Maxfiy va qimmatli arxiv materiallari bo‘lishiga qaramay, shkaf hamda pechatlar yo‘q. Arxivni muhofaza qilish turish uchun esa qorovul yoki miltiq yo‘q. Hatto idorani tozalash uchun farrosh berilmagan, qo‘riqchi va sekretar yoki inspektor yo‘q, demak butun ish mudirning bo‘ynida. Yong‘indan saqlash uchun o‘t o‘chirish asboblari olib berilmagan. Arxiv bo‘limida idoraviy asboblari etishmagan. Idora xarajatlari uchun shahar soveti hech qanday pul bermaydi, shuning uchun arxiv bo‘limi ishini jonlantirishda etarli yordam berishingizni so‘rayman. Agarda, bu safargi talabimiz ham javobsiz qolaversa, Oliy Sovetga ham murojaat qilishga majburman. Chunki, hozirda arxiv bo‘limining ishi juda ham qarovsiz holga tushurib qo‘yilgan[4]. Bu kabi muammolar arxiv ishini yaxshilashda to‘sqinlik qilgan, biroq, arxivga e‘tibor berilishini talab qilib, yuqori organga yuborilgan xat albatta, sohada chuqur inqiroz mavjudligidan dalolat beradi. Qolaversa, arxiv mudiri lavozimida ishlagan rahbarlar o‘z ishini puxta bajarishi bilan bir qatorda, hujjatlarni bezavol saqlashni ham asosiy burchi deb bilgan. Bu esa soha rivojida muhim turtki bo‘lib xizmat qilgan.

Arxiv ishi boshqarmasining 1950 yil 7 apreldagi 12/94-son xatiga asosan, “Arxiv materiallarini saqlash tartibi va holati to‘g‘risida” quyidagi mazmunda ma‘lumotnoma yuborgan. Unga ko‘ra, Namanganda ikkita arxiv mavjud bo‘lib, bino g‘ishtdan qurilgan, devorlar g‘isht bilan qoplangan va loy suvoqli bo‘lib, ohak surtilgan. Saqlash xonasi devorlari bo‘r bilan oqlangan. Shiftlar: bir omborxonada – yog‘och taxta, ikkinchisida gipsli. Javonlar yog‘ochdan yasalgan bo‘lib, umuman bo‘yalmagan. Havo harorati 28 dan 30 darajagacha (may, iyun, iyul, avgust oylari uchun ma‘lumotlar). Qurilmalar yo‘qligi sababli havo namligini hozir belgilash mumkin emas (buning uchun sog‘liqni saqlash stansiyasi yoki paxta zavodi laboratoriyasiga murojaat qilinadi). 1950 yilda xodimlar tomonidan fondlarni bog‘lashda varaqlar yopishtiriladigan joylar hujjatli materiallarga zarar etkazish holatlari qayd etilgan, natijada jami 30 ta saqlov birligi shikastlangan. Arxivlarning sanitariya-gigienik holatini yaxshi deb bo‘lmaydi, chunki bo‘r bilan oqlangan devorlar doimiy ravishda qurib qoladi, loy bilan suvalgan pol esa parchalanib, doimiy ravishda chang berib turadi. Lekin, shunga qaramay, doimiy ravishda changdan tozalash

choralari ko‘rib boriladi: devorlar supuriladi, pollar nam latta bilan artiladi, hujjatlar vaqti-vaqti bilan quritiladi, cho‘tki bilan tozalanadi. SHuning uchun qog‘oz va matnlarning saqlanish darajasi yaxshi[5].

Arxiv sohasini rivojlantirish borasida O‘zSSR Ichki ishlar Ministrligining Andijon oblasti bo‘yicha arxiv boshqarmasi rahbarlari bilan hududdagi arxiv organlari va davlat arxivlari xodimlarining uchrashuvlari tashkil etib turilganligi diqqatimizni tortdi. SHunday uchrashuvlardan biri 1951 yil 15 iyunda Andijon shahrida SSSR Ichki ishlar vazirligining 1950 yil 0258 va 0707-sonli buyruqlarining Andijon oblasti davlat arxivi tomonidan bajarilishi yuzasidan o‘tkazilgan bo‘lib, bu butun Respublika bo‘ylab muvaffaqiyatli olib borilganligi, Andijon oblasti esa eng ko‘p ortda qolayotganligi kun tartibining asosiy masalasi bo‘ldi. Kun tartibida arxiv ishida yo‘l qo‘yilgan kamchiliklar va ularni bartaraf etish choralari to‘g‘risida so‘z yuritildi. Andijonda hammaga ma‘lum tadbirlar bo‘lib o‘tdi, lekin 2–3 yildan beri oblast arxivida hujjatli materiallarni tartibga solish masalalariga mutlaqo yetarli e‘tibor berilmaganligi aniqlandi.

Shuningdek, Farg‘ona oblastidan tartibsiz hujjatlar olib kelinayotganligi tufayli vaziyat og‘irlashganligi qayd etildi. 1948 yilda hujjatlarga qayta ishlov berish rejalashtirilmagan. 1949 yilda esa 10000 ta saqlash birliklarini tartibga solish rejalashtirilgan edi, ulardan 294 tasi bajarilgan xolos. 1950 yildagi rejalar to‘liq bajarilgan bo‘lsa-da, 1951 yilda yana kechikish holatlari sodir bo‘lgan.

Arxivlardagi asosiy masala doimo yong‘inga qarshi kurashish bo‘lib, unga bir nechta chora-tadbirlar ishlab chiqildi. Shunday amaliy ishlarga misol sifatida O‘zSSR Ministrlar Soveti huzuridagi Arxiv boshqarmasining 1972 yil 17 avgustdagi 7/1-9-son buyrug‘iga asosan, barcha arxivlar va ularning filiallarida yong‘in xavfsizligini to‘liq ta‘minlash maqsadida bir oy muddatda quyidagi ishlar bajarilishi belgilab berilgan. Unga ko‘ra, arxiv hovlisiga yong‘inga qarshi vositalarni joylashtirish uchun yong‘in qalqoni o‘rnatish, barcha xonalardan noqonuniy isitish moslamalarini olib tashlash, har 50 m² uchun bitta yong‘in o‘chirish moslamasi hisobiga saqlash joylarini o‘t o‘chirish moslamalari bilan jihozlash, temir eshiklarini o‘rnatish va muhrlash hamda, arxiv bo‘limiga 1972 yil 25 sentyabrgacha bajarilgan ishlar to‘g‘risida hisobot berish belgilangan[6].

Arxiv idoralarini moddiy-texnik ta‘minlashdagi turg‘unlikning kuchayishi arxiv tadqiqotlarining boshqa sohalarida salbiy tendensiyalarning kuchayishiga olib keldi. Masalan, 70-80-yillarda hujjatlar xavfsizligini ta‘minlash, ularni tiklash va ayniqsa qimmatli arxiv materiallarini nusxalash vazifasi to‘xtab qoldi. Ushbu muhim vazifani hal etish yo‘llari Glavarxiv (O‘zbosharxiv) rahbari A. A. Mirzabaev va uning o‘rinbosari P. L. Vayss tomonidan o‘tkazilgan bir qator kengaytirilgan yig‘ilishlarda alohida muhokama qilingan. Natijada qimmatli hujjatlarning sug‘urta fondini yaratish bo‘yicha ishlar sezilarli darajada kuchaydi. Bu, ayniqsa, O‘zbekiston Markaziy Davlat

arxivi boshqaruvida, Buxoro, Samarqand va Farg'ona oblastlari davlat arxivlarida jadal olib borilgan¹. Ammo, shunga qaramay rejalashtirilgan vazifalar bajarilmadi. Bunga asosiy sabab mikrofilm mashinalari uchun kimyoviy moddalar va plyonkalarining etishmasligi, shuningdek, ehtiyot qismlarning tanqisligi asosiy muammo sifatida ko'rildi.

Respublika arxiv muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash borasidagi vazifalarni hal etishda muayyan yutuqlarga ham erishilgan. Masalan, O'zbekiston SSR Markaziy davlat arxivi Andijon oblastining Lenin filiali, Sirdaryo oblastining Yangier filiali, Qashqadaryo oblastining Shahrisabz filiallari yangi binolarga ko'chib o'tdi. Farg'ona oblast davlat arxivi uchun binolar ajratish masalasi 1990 yilda ijobiy hal etildi. 1986-1990 yillar davomida jami 63229 rublga uskunalar sotib olindi². Qayta qurish siyosati arxivlar faoliyatiga o'z ta'sirini qo'rsatganligini yuqoridagi asoslar tasdiqlab turibdi. Lekin, tub demokratik o'zgarishlarni amalga oshirish, boshlangan islohotlarni oxiriga etkazish imkoni bo'lmadi. Arxivlarda ham talaygina muammolar echimini topmay qolib ketdi.

Umuman olganda moddiy-texnik ta'minotdagi o'zgarishlardan quyidagicha xulosa qilish mumkin. Arxiv tushunchasi zamonaviy tarzda kirib kelishi bu soxadagi sezilarli darajadagi o'zgarishlarni boshlab berdi. Bu orqali barcha darajadagi xujjatlar saqlovi yaxshilana boshlandi. Faqatgina yuqori martabali shaxslar emas, balki mamlakat tarixida muhim rol o'ynagan insonlar fondlari ham to'plana boshlandi. Sovet davrida arxiv hujjatlarini saqlash uchun normal sharoit yaratish maqsadida davlat arxivlari va idoraviy arxivlar ishi uchun binolar ajratish, hamda, jihozlash ishlari yaxshi shakllantirildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Тилеукулов Г. С. Архивное дело в Узбекистане (1918–1980-е гг.): опыт и проблемы: Автореф. дисс...канд.ист.наук. – Ташкент, 1995.
2. Farg'ona viloyati davlat arxivi. 4-fond, 1-ro'yxat, 15-ish.
3. Namangan viloyati davlat arxivi. 273- fond, 1- ro'yxat, 1-ish.
4. Namangan viloyati davlat arxivi. 273- fond, 1- ro'yxat, 4- ish
5. Namangan viloyati davlat arxivi. 273-fond, 1-ro'yxat, 37-ish.
6. Namangan viloyati davlat arxivi. 273-fond, 1-ro'yxat, 189-ish.

¹ Тилеукулов Г. С. Архивное дело в Узбекистане (1918–1980-е гг.): опыт и проблемы: Автореф. дисс...канд.ист.наук. – Ташкент, 1995. Б. 124.

² Тилеукулов Г. С. Архивное дело в Узбекистане (1918–1980-е гг.): опыт и проблемы: Автореф. дисс...канд.ист.наук. – Ташкент, 1995. Б. 124.